

# “Yil talabasi” ko‘rik- tanlovining institut bosqichi



O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida “Yil talabasi” ko‘rik- tanlovining institut bosqichi bo‘lib o‘tdi.



Tanlovda talabalar “Yilning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talabasi”, “Yilning eng faol tashabbuskorta-targ‘ibotchi talabasi”, “Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi”, “Yilning eng faol sportchi talabasi”, “Yilning eng faol ijodkor talabasi”, “Yilning eng bloger talabasi”, “Yilning eng namunali tadbirkor talabasi” nominatsiyalari bo‘yicha sinovdan o‘tdilar.



Tanlov komissiyasi tomonidan ishtirokchilarning fanlarni o'zlashtirishi va o'quv jarayonidagi ishtiroki hamda faolligi, chop etilgan maqola, tezislari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa jamoat tashkilotlaridagi amaliy ishtiroki, talabning sport sohasidagi yutuqlari, musiqa, adabiyot, san'at va madaniyat, teatr sohaslaridagi qiziqishlari hamda erishgan natijalari ko'rib chiqildi va har bir nominatsiya bo'yicha g'oliblar aniqlandi.



G'oliblar tanlovning navbatdagi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

**Matbuot kotibi**